

**O'ZBEK TILIDAGI *-GAN EDI* FE'L SHAKLINING XITOIY TILIDA
IFODALANISH XUSUSIYATLARI**

FEATURES OF THE EXPRESSION OF THE UZBEK VERB FORM “*-GAN EDI*” IN CHINESE

**ОСЕБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ ГЛАГОЛЬНОЙ ФОРМЫ «*-ГАН ЭДИ*»
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

Шамсиддинова З.,

(PhD)преподаватель,

Университет мировой экономики и дипломатии

Ташкент, Узбекистан, zeboxon_shams@mail.ru

Shamsiddinova Z.,

(PhD)Lecturer,

University of World Economy and Diplomacy,

Tashkent, Uzbekistan, zeboxon_shams@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi o'tgan zamonning analitik shakli hisoblangan *-gan edi fe'l* shaklining xitoy tilida ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xitoy tilida ushbu ma'noning yagona grammatik shakl orqali emas, balki turli sintaktik va leksik vositalar yordamida ifodalanishi misollar asosida yoritilgan. Jumladan, 是...的 konstruksiyasi, 过 suffiksi, 曾/曾经 ravishlari, payt bildiruvchi birliklar, ...时 konstruksiyasi hamda 已经...了 shakllarining qo'llanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tahlillar natijasida o'zbek tilida zamon kategoriyasi ko'proq morfologik vositalar orqali, xitoy tilida esa sintaktik va leksik vositalar orqali ifodalanishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *-gan edi* analitik fe'l shakli, o'tgan zamon, grammatik vositalar, sintaktik vositalar, 过 suffiksi, 是...的 konstruksiyasi, qiyosiy tilshunoslik, tipologiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности выражения узбекской аналитической формы прошедшего времени *****-ган эди***** в китайском языке. Исследование показывает, что в китайском языке данное значение передаётся не одной грамматической формой, а различными синтаксическими и лексическими средствами. На основе примеров анализируются конструкции 是...的, суффикс 过, наречия 曾 и 曾经, временные показатели, конструкции ...时, а также форма 已经...了. В результате исследования установлено, что категория времени в узбекском языке выражается преимущественно морфологическими средствами, тогда как в китайском языке — синтаксическими и лексическими средствами.

Ключевые слова: аналитическая форма глагола -ган эди, прошедшее время, грамматические средства, синтаксические средства, суффикс 过, конструкция 是...的, сопоставительное языкознание, типология.

Abstract. This article analyzes the ways of expressing the Uzbek analytical past tense form -gan edi in Chinese. The study demonstrates that this meaning in Chinese is conveyed not by a single grammatical form, but through various syntactic and lexical means. The article examines the usage of the 是...的 construction, the suffix 过, the adverbs 曾 and 曾经, temporal markers, the ...时 construction, and the 已经...了 pattern based on illustrative examples. The analysis reveals that tense categories in Uzbek are mainly expressed morphologically, whereas in Chinese they are expressed mostly through syntactic and lexical devices.

Keywords: -gan edi analytic verb form, past tense, grammatical means, syntactic means, suffix 过, 是...的 construction, comparative linguistics, typology.

Kirish.

O'zbek va xitoy tillari turli tipologik tizimlarga mansub bo'lib, ularning grammatik qurilishida sezilarli farqlar mavjud. Xususan, o'zbek tilida o'tgan zamon *-gan edi* shakli orqali ifodalansa, xitoy tilida bunday yagona shakl mavjud emas. Shu sababli bu ma'no turli grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi.

Asosiy qism.

1. 是...的 konstruksiyasi orqali ifodalanishi:

我们是一九六〇年秋季进入大羊栏小学的。

(1960-yil kuzida maktabga kirgan edik.)

Mazkur gapda 进入 (kirmoq) fe'li hech qanday o'tgan zamon qo'shimchasini olmagan. Ammo 是...的 konstruksiyasi ish-harakatning o'tmishda sodir bo'lganini va aynan vaqtiga urg'u berilayotganini ko'rsatadi. Bu holat o'zbek tilidagi -gan edi shakliga ma'nodosh hisoblanadi.

2. 过 (guò) suffiksi orqali uzoq o'tmish ifodasi:

说你以前咒过他。

(Sen ilgari uni qarg'agan eding.)

Bu jumlada 以前 (ilgari) – payt ravishi hamda 咒过 – fe'l + 过 suffiksi ish-harakatning qachonlardir sodir bo'lganini bildiradi. Bu yerda aynan *-gan edi* shaklining uzoq o'tmish ma'nosi ifodalangan.

我曾经参加过这样的比赛。

(Men ilgari bunday musobaqada ishtirok etgan edim.)

Ushbu gapda 曾经 ravishi harakatning o'tmishdagi tajriba ekanini kuchaytiradi.

3. 曾 (céng) ravishi orqali o'tmish ifodasi:

1836年后柬埔寨曾被法国、日本占领。

(1836-yildan keyin Kambodja Fransiya va Yaponiya tomonidan istilo etilgan edi.)

Yuqoridagi jumlada fe'l oddiy shaklda, ammo 曾 ravishi o'tmish ma'nosini beradi. Demak, xitoy tilida ba'zan zamon fe'l orqali emas, balki ravish orqali ifodalanadi.

4. Payt bildiruvchi birliklar orqali ifodalanishi:

就在那时，我明白了这句话的含义。

(O'sha paytda men bu iboraning ma'nosini tushungan edim.)

Yuqorida berilgan gapda 那时 (o'sha paytda) asosiy vaqt ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar shu birlik olib tashlansa, gapning zamon ma'nosi o'zgarishi mumkin.

那时你姑奶奶被调到卫生局工作。

(O'shanda xolangiz ishga yuborilgan edi.)

Mazkur jumlada ham 那时 o'tgan zamonni ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi.

5. Qo'shma gaplarda ifodalanishi:

我跑进医院时，姑姑正和那个女人吵架。

(Men kirganimda, xolam janjallashayotgan edi.)

Bu gapda ...时 (...paytda) konstruksiyasi o'zbek tilidagi -gan edi bilan ifodalangan payt munosabatini beradi.

6. Sabab munosabatida:

因为我们听说过这些事情。

(Biz bu gaplarni eshitgan edik.)

Yuqoridagi jumlada 因为 – sabab bog'lovchisi hamda 听说过 – fe'l + 过 kombinatsiyasi o'zbek tilidagi -gan edikki shakliga mos keladi.

7. 已经 ... 了 konstruksiyasi:

后来我已经忘记了这谈话。

(Keyinchalik bu suhbatni unutgan edim.)

Mazkur jumlada 已经 – allaqachon hamda 了 – yakunlanganlik ko'rsatkichi harakatning tugallanganligini va o'tmishga oidligini bildiradi.

Xulosa.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi -gan edi shakli xitoy tilida yagona grammatik shakl bilan emas, balki quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

- 过 (guò) suffiksi
- 是...的 konstruksiyasi
- 曾, 曾经 ravishlari
- payt bildiruvchi birliklar (那时, 以前 va boshqalar)
- ...时 / ...的时候 konstruksiyalari
- 因为 bog'lovchisi
- 已经 ... 了 shakli

Demak, o'zbek tilida zamon kategoriyasi morfologik jihatdan rivojlangan bo'lsa, xitoy tilida u ko'proq sintaktik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Bu esa ikki til o'rtasidagi asosiy tipologik farqlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского языка.— М.: Наука, 1960.
2. 莫言. 蛙. 北京: 人民文学出版社, 2009.
3. 欧特克尔·哈希莫夫. 生活琐事. 北京: 民族出版社, 2015.
4. Хашимова С. ПРОБЛЕМЫ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО НА РУССКИЙ ЯЗЫК //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 27. – С. 5-10.
5. Насирова С. А. ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ ТЕРМИНОВ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ ДРЕВНЕГО КИТАЯ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 27. – С. 77-87.
6. Shamsiddinova, Zebo Fazliddinovna. "HOZIRGI XITOY TILIDA TEMPORATIVLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR MISOLIDA)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.25 (2024): 83-89.